

**ABDUQAYUM YO'LDOSHNING "TIMSOHNING KO'Z YOSHLARI"
SYUJETI TAHLILI**

Ibrohimova Ra'no Muzaffar qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish:

o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Anotatsiya : ushbu maqolada Abduqayum Yo'ldoshning "Timsohning ko'z yoshlari" qissasining syujeti yoritilgan.

Kalit so'zlar: syujet , syujet unsurlari: ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, konflikt, kulminatsiya, yechim.

Abstract: this article discusses the plot of Abdukayum Yuldash's story "The Tears of the Crocodile".

Keywords: plot, plot elements: exposition, climax, development of events, conflict, culmination, resolution.

Аннотация: В данной статье рассматривается сюжет рассказа Абдулкаюма Юлдаша «Слёзы крокодила».

Ключевые слова: сюжет, элементы сюжета: экспозиция, кульминация, развитие событий, конфликт, развязка, разрешение.

Syujet fransuzcha "predmet" degan ma'noni bildiradi, badiiy tasvir vositasidir. Syejet – asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi hayotiy voqealar yig'indisi, bir so'z bilan aytganda , syujet - voqea-hodisalar majmui.

Abduqayum Yo'ldoshovning "Timsohning ko'z yoshlari"qissasi xronikali syujet turiga mansub, ya'ni asarda voqealar birin- ketin, peshma-pesh tasvirlanadi.

Syujet unsurlari: ekspozitsiya (lotincha expositio-tushuntirish)- syujetning kirish , boshlanma qismi. Ekspazitsiyada asar voqeasi bo'lib o'tadigan joy, qahramonlarning konfliktgacha bo'lgan paytdagi qiyofasini, holatini namoyon etadigan vaziyat , shart-sharoit tasviri bo'ladi. Ekspozitsiya asar muhitiga olib kiruvchi va kitobxonni tayyorlovchi syujetning kirish qismidir.

Ekspozitsiya asardagi joylashgan o'rniga qarab turlicha bo'ladi:

a) to'g'ri ekspozitsiya – asar voqealarining boshlanishidan oldin keladi.

Masalan , Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani.

b) kechiktirilgan ekspozitsiya – syujet tugunidan so'ng yozuvchi tomonidan qahramon haqida berilgan ma'lumot. Misol uchun , Abdulla Qahhorning "Sinchalak " hikoyisi.

c) teskari ekspozitsiya – asar syujetining yechimidan keyin qahramon haqida berilgan qo'shimcha ma'lumot. Masalan, N.V.Gogolning "O'lik jonlar" asari.

Biz tahlil qilayotgan qissa ekspozitsiyasi to`g`ri ekspozitsiya turiga kiradi, ya`ni qissadagi voqealar boshlanmasidan oldin muharrir tomonidan kitobxonlarga o`zi haqida hamkasblari, ish o`rni to`g`risida aytib o`tadi. Qissa ekspozitsiyasi – vaqt ta`rifi bilan boshlanadi: ”..Bilmadim, yo umr o`rtasi atalmish tepalikchani bir pasda oshib o`tasola ufqdagı (balki oyoq ostidadir – jonga ishonch bormi) manzil shakl-shamoyilini g`ira-shira ilg`ay boshlaganingdan so`ng shundoq tuyuladimi, yo chindan-da ko`p tushunchalar aralash-quralash bo`lib ketgan davrimizda zamin o`z o`qi atrofida tezroq aylanib, quyosh Yer girdida ildamroq harakat qilmoqdami (darvoqe, nafasni issiq qilayin-u, rivoyat qilishlaricha, oxir zamon yaqinlashganda ham fursat arg`umog`iga shiddatli qamchi urilarkan), ishqilib, so`nggi besh-olti yil ichida vaqt juda-juda shoshib o`tayotganday-u, men hech narsaga ulgurmay qolayotgandayman. Vaholanki, oynavand qafas ichidagi olmaxon yanglig` tinim bilmayman – hazil gapmi, naq to`rt joyda ishlayman-a! Balki, eski zamonlar bo`lganida, pulga botib qolarmidim?! Bu kun esa ro`zg`ordan, oshqozondan orttirib, deylik, ishsiz yoki maoshsiz qolishim ehtimoli mavjud “qora kunlarim”ga uch-to`rt tanga jamlab qo`yishga-da qurbim yetmaydi-yu, yana “ishlayapman!” deya minnatning kattasini qilib o`tirishimning o`zi ortiqcha.” [4-bet], so`ng qissani hikoya qilib beruvchi muharrir tomonidan o`z ish faoliyati va ayni chog`da, tugun hamda voqealar rivoji boshlanadigan tahririyat tasviri ham beriladi: “ Men N. gazetasi tahririyatiga haftasiga ikki kun kelardim: chorshanba – kompyuterdan chiqqan maqolalar grankalarini o`qirdim, juma – sahifalarni. Gazeta, nazarimda, keyingi paytlarda urchib ketgan o`rtamiyona nashrlardan biri bo`lib, saviya ham shunga yarasha, inchunun, ba`zida biron-yarim juz`iyroq imlo xatosi o`tib ketsa-am birov bilib, boshqasi bilmay qolaverardi.

Ikki yonboshidagi almisog`dan qolgan, eshiklarsiz ikki shkafi qog`oz o`ramlariga to`la katalakdek xonadagi bir yarimta stol (kaminaning stoli xonaga sig`magani bois shartta o`rtasidan arralab tashlanib, yetishmay qolgan oyoqlar o`rniga qog`ozga o`ralgan g`isht qo`yilgandi) atrofida uch kishi o`tirardik .” [5-bet]

Bundan tashqari, qissa qahramonlariga(hamkasblariga) ta`rif ham muharrir tomonidan keltiriladi, ya`ni bu qissada muharrir hikoyachi vazifasini o`taydi: “Beo`xshov semirib ketgan, yo`lakka chiqib kelsa-am, darrov hansirab, yuragidan shikoyat qilaveradigan ellik yoshlardagi, lekin mudom tili-yu dilidan tushmaydigan hasrat ongi ila vujudini og`ulab ulgurgani sabablimi yanada qarimsiq ko`rinadigan, nimasi bilandir uzib, paykaldā qoldirib ketilgan, kun urib, sarg`imtir tusga kirgan, ichi pishib ketgan kattakon qovunni eslatadigan Salomat opamiz bo`lim mudirasi, o`zlarining ta`birlari bilan aytganda, “istarshoy korrektor” edilar. Men va universitetni bultur bitirib kelgan Munisa oddiy musahhihlar edik. Biroq, yoshimni hisobga olibmi yoki kechagi toliba bilan bir safda turishni ep ko`rmaganimdanmi, men o`zimni “o`rtancha musahhih”, qizni esa “kichik musahhih” deb atardim.” [5-bet]. Shu tarzda ekspozitsiya orqali kitobxonda obrazlarga nisbatan tasavvur hosil bo`ladi.

Tugun - konflikt va voqealar rivojini yuzaga kelishiga sabab va turtki bo'luvchi hodisa yoki voqea. Qissa tuguni – qahramonimiz Munisaning turmushga chiqmaganligi masalasi. Bu masala asardagi voqealar rivojiga va konfliktni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Munisaning turmushga chiqmaganligi Salomat opaning qalmog'iga tushishiga sabab bo'ldi va bu uning hayotidagi muammolarni, umuman olganda, asardagi muammolar zanjirini boshlanish nuqtasiga aylandi: "Shunda opa gapni battar chuvalashtirdi, uzoq-uzoqlarga uloqib keldi, Munisaning tug'ilgan oyi va yilini dastak qilgan ko'yi qizning umri avvaliga og'ir kechishi qonuniy hol ekanligidan ogoh etib menga tasalli bergan bo'ldi. Va nihoyat alqissaga ham yetib kelindi: xudoga shukur, erga tegsa hammasi yaxshi bo'lib ketarkan, muhimi – oila qurib olishda ekan. Shunga, mabodo biron muchali qo'ymi, yo'lbarsmi bo'lgan, iloji topilsa o'qotar burjida tug'ilgan so'qqabosh o'rtog'immi-jiyanimmi o'z peshonasiga bitilgan ikkinchi yarmini izlab yurgan bo'lsa, ikki yoshni uchrashtirib deganday... Buyam bir savob-da..." [15-bet]

Voqealar rivoji - bu asarda ziddiyat, muammoning tobora kuchayish va zo'rayish davri hisoblanadi. Ayni voqealar rivojida qahramonlarning xarakterlari ochiladi, personajlar yoki qahramonning o'z ichki hissiyotlaridagi to'qnashuvlar, ziddiyatlar bosqichma-bosqich kuchayib boradi va bu syujetning to'rtinchi unsuri, kulminatsiyani hosil qiladi. Qissadagi voqealar rivoji Munisani tush ko'rish "operatsiyasi"dan boshlangan bo'lsa, uni to Pospon bilan uchrashguncha bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichida namoyon qiladi. Salomat opaning kaltafahmli va Munisaning ishonuvchanligi ta'sirida yuzaga kelgan hodisalarga voqealar rivoji deb qaraymiz. Bunda asosan timsoh detal vazifasini o'tagan, chunki birgina timsohni tushda ko'rish Munisaning hayotini butunlay o'zgartirib yubordi:

"E xudo, buning nimasi qiyin axir, shundoq yotib, shundoq o'ylasang bas, kiradi-qo'yadi..." Bu tarzda seriddao shikva-shikoyatlar shu qadar asabimni o'ynatadigan bo'ldiki, oxir-oqibat men ham: "O'sha oting o'chgur timsohni bir marta tushda ko'rib chiqish rostdan ham shunchalar qiyin ishmikin?!" deya o'zimcha qizdan o'pka-gina qilib qo'yadigan bo'ldim. Ayniqsa, nazarimda, aybdorlik hissiyu iztirobdan bir burdagina yuzi ayanchli ravishda burishib ketadigan Munisa "buyurtma" tushni ko'rolmayotganidan emas, aynan opaning savoliga "yo'q" deb javob berishdan yurak oldirib qo'rganini tasmol qilarkanman, chin gap, yuragim tuzdek achishib, qizga rahmim kelib qoladigan paytlarim ham bo'lardi." [22-bet]

Shu o'rinda, kulminatsiyadan oldin konfliktga to'xtalsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Konflikt (lotincha ixtilof, to'qnashuv) - asardagi qahramonlarni bir-biri bilan o'zaro ziddiyati, kelishmovchiligi yoki asar qahramonining o'z ichki ruhiyati bilan to'qnashuvi, olishuvi.

Qisadagi konflikt – Salomat opa va Munisaning xarakterlari o'rtasidagi farq. Abduqayum Yo'ldoshov bu ikki ayol obrazi orqali jamiyatimizdagi ba'zi ayollarning xarakterini ochib bergan. Masalan, qissa hikoyachisi tomonidan ushbu ayollarga

berilgan ta'rifga to'xtalsak, "Beo'xshov semirib ketgan, yo'lakka chiqib kelsa-am, darrov hansirab, yuragidan shikoyat qilaveradigan ellik yoshlardagi, lekin mudom tili-yu dilidan tushmaydigan hasrat ongi ila vujudini og'ulab ulgurgani sabablimi yanada qarimsiq ko'rinadigan, nimasi bilandir uzib, paykalda qoldirib ketilgan, kun urib, sarg'imgir tusga kirgan, ichi pishib ketgan kattakon qovunni eslatadigan Salomat opamiz bo'lim mudirasi, o'zlarining ta'birlari bilan aytganda, "istarshoy korrektor" edilar." [5-bet], "Kiyinishdagi odmiligidan tashqari, fikrimcha, Munisa juda unaqangi ko'zga "yarq" etib tashlanadigan, ko'rganingda ich-etingni jimirlashtirib yuboradigan xushdor qizlardan emas edi. Yosh, tabiiyki, o'n sakkizdan oshgan, liboslar ham haligidaka – yomon emas-u, ko'zni o'ynatadigan darajada emas-da, taqinchoqlar yo'q hisobi, upa-elik ta'siri ham sezilar-sezilmas. Faqat qizning katta-katta ko'zlari odamga juda samimiy, fikri ojizimcha, andakkina g'ussa aralash mayinlik bilan boqardiki, o'lay agar, salgina fahm-farosatdan qisilmagan istalgan erkak qarshisida ma'suma, ishonuvchan bir qushcha turganini darxol his qilarg'yar, inchunun, aynan ushbu taassurot tufayli Munisaga nisbatan yomonroq xayolga borish imkoniyati deyarli yo'qqa chiqardi. Yanglishmasam, singillar, andakkina g'ariblikda o'sgan singillar akalariga shunday qaraydilar: ham topinib, ham jigari ezilib..." [13-14-betlar]

Kulminatsiya mana shu konflikt, ziddiyatni cho'qqiga chiqqan holati. Asli kulminatsiyani lug'aviy ma'nosi ham lotincha "cho'qqi" deganidir. Munisani homilador bo'lib qolishi va ruhiy kasallar shifoxonasiga tushib qolishi qissadagi kulminatsiyani hosil qiladi, ya'ni Salomat opaning kaltafahmligi hamda turli xil munajjimlarning bashoratiga ishonuvchanligi, o'zgalarning hayotiga "burun suqib" yurishi Munisaning boshiga turli ko'ngilsiz hodisalar tushishiga sabab bo'ldi. Ayni qissada Munisaning ayanchli voqealar tufayli uning ruhiyatidagi o'zgarishlarga e'tibor qaratsak : "Chekib-pekib kelsalar bo'lardi. Indamay o'rnimdan turdim. Narsalarni yig'ishtorgan bo'lib timirskilanarkanman, payt poylab turib zipillagancha opaning ulkan gavdasini aylanib o'tdim va bezgak tutganday qaltirayotgan qizga ko'z tashlab olishga ulgurdim. Qonsiz (o'zi azaldan ham kamqon edi, nazarimda) rangi quv o'chgan, qovjirab ketgan lablarini bir nimaga ahd qilganday qattiq qimtigan Munisaning o'ng yuzi sal ko'kargan, har qancha bekitishga urinmasin, ro'mol uchini changallab turgan o'ng qo'lida ham barmoq izlari..."

Yo'lakka chiqdim. Ko'nglim birdan bo'm-bo'sh bo'lib qolganday edi." [48-bet]

Asardan yana bir qismni keltirsak, yuqoridagi fikrimiz yana-da oydinlashadi: "Qizning o'zi o'zgargandi. Endi qarshimda tortinchoq-ma'suma, jur'atsiz, hatto bir narsa so'rashga ham iymanib turadigan Munisa emas, bosib kelayotgan nedir bir xavfdan vahimaga tushib qolgan, shu bois dardi dunyosi qorong'u, ko'ziga hech narsa ko'rinmayotgan, miyasiga hech narsa sig'mayotgan, ayni chog'da allaqachon ro'y berishi lozim bo'lgan qandaydir sarobiy mo'jizani intiqlik bilan kutayotgan, o'zi juda-juda aniq-tiniq his qilib turgan, balki kimlardir tomonidan og'izda naqd qilib qo'yilgan ushbu mo'jizaning kechikish sababini sira anglay olmasdan battar qo'rquvga

tushayotgan, mitti yurakchasi terak bargiday dir-dir titrayotgan, butun madorini jisimi jonidagi ulkan vahima iloni so‘rib olib qo‘ygan ojizu nolon juvon turardi. Kirtaygan ko‘zlardagi ochiq-oshkor dahshat ifodalari, qop-qorayib ketgan, bir burdagina bo‘lib qolgan yuz, turtib chiqqan yonoq suyaklari, qalam u yoqda tursin, hatto qog‘oz tutib turishga unchalik qovushmayotgan barmoqlar, bo‘g‘iq ovoz, bo‘yin-bilaklaridagi ko‘kargan izlar – bularning barisi ehtimolki hamxonasi eshitib qolishidan cho‘chigani sabab tuni bilan boshini yostiqa burkagancha yig‘lab chiqadigan, har tongni so‘nggi omonat ilinj bilan kutib oladigan, biroq kun mobaynida o‘zi zor madad-suyanchikka emas, soxta hamdardlik aralash tahqiromuz munosabatga, nari borsa yolg‘onligi bilinib turgan va‘dalaru ayb o‘zida ekanligi xususidagi mingtinchi bor aytilayotgan ta‘nashnomlarga yo‘liqaverib butunlay yurak oldirib qo‘ygan, ojizona isyon ko‘tarishga jur‘at etgan chog‘lari esa besharm haqoratu kaltaklar do‘li ostida adoyi tamom bo‘lgan, dunyo ko‘ziga tor ko‘rinib ketgan, tiriklikni faqat azob chekish deb tushuna boshlagan, ayni chog‘da... o‘, dahshat emasmi bu!.. olisdagi g‘aribu g‘urabo ota-onasini, mushtipargina opalarini o‘ylagan chog‘lari alamdan dod deb yuborayotgan, izillab-o‘ksib yig‘layotgan mana shu mittigina vujud, mana shu kichkinagina sinchalak qizimiz Munisa...” [66-67-betlar]

Munisaning, umuman olganda, Munisaga o‘xshagan sodda, beg‘ubor dunyoni, insonlarni o‘zi kabi deb biladigan va ularga ishonadigan qizlarni aldab, ularni soddaligidan foydalanayotgan Salomat opa va Posbon kabi obrazlarga hamda jamiyatdagi shu kabi shaxslarga nisbatan yozovchining o‘z qarashlari qissa hikoyachisi bo‘lmish muharrir tomonidan quyidagicha yoritiladi : “Nimalar qilib qo‘yding, ablah Posbon? Sen-chi, qo‘shmachidan battar qiliqlar qilgan Salomat opaxon?! O‘tgan kuni gazeta taxlamini titib, qandaydir bir ginekologning maqolasini izlab yurganingda xayolimga biron yomon o‘y kelmabdi-ya! Vaholanki, sen qayta-qayta ta‘kidlagan tabiatimdan kelib chiqqan holda darhol shubhalanishim, so‘rab-surishtirishim, iskarlanishim kerak edi!.. O‘, bechora qiz... “Men ham insonman, axir! Menda ham nomus bor, vijdon bor, or bor...” Biroq G‘ofir monologini aytib o‘tiradigan fursat emas edi. Buning ustiga, hozir, qizib turgan paytim nechadir aytishga ulgursam ulgurdim, ulgurnasam keyin, soviganimdan keyin foydasi yo‘q – turli mulohazalarga boramanu, indamay qo‘ya qolaman.” [67-bet]

Qissa syujetining beshinchi unsuri yechim – bu qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatning xotimasi , ya‘ni asar kulminatsiyasida cho‘qqiga chiqqan muammoning yechimi topilishi. Qissadagi Munisaning uyiga , o‘z qishlog‘iga , ota-onasi bag‘riga qaytishi uning hayotidagi muammolar uchun – Posbon va Salomat opa kabi razil insonlardan qutilishi uchun yechim bo‘la oladi :

“– Kecha borgandim. Javob berib yuborishibdi. – Tuzalibdimi?– Shunaqa desa ham bo‘ladi. – Opa baayni ming yil ilgari tasodifan ko‘rib qolgan tanishi xususida gap borayotganday beparvo edi. – Bilasiz, propiskasi yo‘q edi. Shuning uchun qizimizni o‘z viloyatiga yuborishibdi. O‘sha yerda uch oy

yotsa keyin invalidlik berisharkan. – Shu yerga kelganda mudiramiz pixillab kulib yuborib, yangi qizga o‘girildi.” [86-87-betlar]

Asarning qiymatini uning mazmunini ochib beruvchi syujet baholaydi. Qissa syujetining mukammalligi asarni mohirona yozilganligiga hamda yozuvchining naqadar qobiliyatli ekanligiga dalil bo‘ladi. Syujet unsurlari asar g‘oyasini kitobxonga yetkazib berishda muhim ro‘l o‘ynashini mana shu Abduqayum Yo‘ldoshning “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasidan anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari . “O‘zbekiston” nashriyoti, 2002-yil
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. “Hayot” nashriyoti, Andijon 2002-yil
3. Abduqayum Yo‘ldosh. Timsohning ko‘z yoshlari. Toshkent“Yangi asr avlodi” 2003-yil